

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzlusiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning № sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 5 yil

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Pediatriya va bolalar ovqatlanishi
O'quv dastur nomi	«Bolalar gastroenterologiyasi»
O'qish turi	Ixtisoslashtirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Axmedova I.M., Nazarova I.D., Salixova M.Z.,
Siklning umumiy soati	504 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
Axmedova I.M. t.f.d. kaf.mudiri	t.f.n, dosent Nazarova I.D.	assistant Salixova M.Z.	t.f.n. dosent Sultanxadjueva Sh.S.	

Maqsad	Vrach-pediatrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, Jahon va mahalliy sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan xolda, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda bolalar gastroenterologlarini tayyorlash.
---------------	--

Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Pediatrlar
--	------------

Sikl vazifalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Vrachlarda bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish, sog'lom bola va o'smirlarni dispanserizasiysi tamoyillari, kasalliklarni oldini olish maqsadida tibbiy sanitariya va profilaktik yordamni tashkillashtirish borasidagi bilimlarni takomillashtirish; 2. Shifokorlarda isbotlangan tibbiyot asoslarini bolalar gastroenterologiyasi sohasida amaliyatga tadbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish; 3. Vrachlarda bolalar gastroenterologiyasi soxasidagi so'nggi klinik protokollar va standartlar asosida ishslash, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida yangi texnologiya va
------------------------	--

	<p>uslublarni o‘zlashtirish, hamda ular yordamida o‘z vaqtida tashhis qo‘yish ko‘nikmalarini takomillashtirish.</p> <p>4. Vrachlarning oshqozon ichak tizimi kasalliklarini davolash borasidagi bilimlarini zamonaviy talablar darajasida chuqurlashtirish;</p> <p>5. Vrachlarning bolalarni oshqozon-ichak kasalliklarida rasional ovqatlantirish, bemor bolalarga parzez ovqatlar belgilash borasidagi bilimlarini takomillashtirish;</p> <p>6. Vrachlarning ambulator sharoitda integrarlashgan usulda bolalar gastroenterologik kasalliklarini tashhislash va davolash borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;</p> <p>7. Gastroenterolog vrachlarda kasbiy mahoratini, klinik fikr yuritishini, murakkab patologiyalarni to‘g‘ri baholab, hamda mutaxassis sifatida gastroenterolog oldiga qo‘yilgan talablarni unumli echish ko‘nikmalarini shakllantirish.</p>
Sikl tarkibi	<p>1-modul: Respublikada sog‘lijni saqlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha so‘nggi me'yoriy hujjatlar, Isbotlangan tibbiyot</p> <p>2-modul: Bolalarda ovqat xazm qilish a'zolarining funksional buzilishlarini so‘nggi (IV) Rim kriteriyalari asosida tashhislash va davolash uslublari</p> <p>3-modul: Bolalarda surunkali gastroenterologik kasalliklarni zamonaviy tashhislash, davolash va profilaktika tamoyillari</p> <p>4-modul: Bolalarda gepatobiliar tizimi va oshqozon osti bezining surunkali kasalliklarini zamonaviy tashhislash, davolash va profilaktika usullari</p> <p>5-modul. Sog‘lom va bemor bolalarni rasional ovqatlantirish</p> <p>6-modul. OIV –infeksiya / OITS. 2019 yilgi yangi milliy protokol bo‘yicha</p>
O‘qish bazalari: 1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy markazi 2. Toshkent shahar ko‘p tarmoqli shifoxonasi	Barcha zamonaviy tekshirish, davolash va lavboratoriya jixozlari bilan ta'minlangan.
	

